# TA'LIM OLUVCHILARNI FANLARNI O'ZLASHTIRISHGA QIZIQTIRISH USULLARI

**Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva**
*Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi*
**Ro'zimatova Arofatxon Maxmudjon qizi**
*Farg'ona davlat universiteti 4-kurs xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo'nalishi talabasi*
*Email: o.r.parpiyeva@pf.fdu.uz*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada ta'lim sohasidagi islohatlar, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya va masofaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, ta'lim oluvchilarni fanlarni o'zlashtirishga qiziqtirishda dars jarayonlarida interfaol ta'lim metodlarini tadbiq etish asosida ta'lim samaradorligini oshirish va ta'limni individuallashtirish, shaxsga yo'naltirish, ta'limda texnologik yondashuvni shakllantirish, hamda faol usullarni ta'lim jarayonlarida qo'llash orqali talabalarni mustaqil ravishda darsni o'zlashtirish, tahlil qilish, ijodiy mulohaza yuritishga, shaxsiy xulosalar chiqarish, erkin fikr yuritishga o'rgatish bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar va iboralar:** *axborot-kommunikatsiya, masofaviy ta'lim texnologiyalari, ta'lim-tarbiya, o'qituvchi, ko'rgazmali vositalar, interfaol metodlar, innovatsion texnologiya, interfaol multimedia texnologiyalari, "sub'ekt-sub'ekt" konsepsiyasi.*

**Аннотация:** *В данной статье реформы в сфере образования, возможности использования современных педагогических, информационно-коммуникационных и дистанционных технологий обучения, используемых в образовательном процессе, повысить эффективность обучения на основе применения интерактивных методов обучения в изучении предметов с целью заинтересовать учащихся в освоении предметов, а также индивидуализировать обучение, сформировать технологичный подход в обучении, использовать в учебном процессе активные методы обучения учащихся самостоятельно усваивать урок, анализировать, мыслить творчески, делать личные выводы, свободно мыслить.*

**Ключевые слова и фразы:** *информация и коммуникация, дистанционные образовательные технологии, образование и обучение, учитель, наглядные пособия, интерактивные методы, инновационные технологии, интерактивные мультимедийные технологии, понятие «субъект-субъект».*

**Abstract:** *In this article, reforms in the field of education, the possibilities of using modern pedagogical, information-communication and distance learning technologies used in the educational process, to increase the effectiveness of education based on the application of interactive educational methods in the learning of subjects in order to interest students in mastering subjects, and to individualize education, form a technological approach in education, and use active methods in educational processes teaching students to independently master the lesson, analyze, think creatively, draw personal conclusions, and think freely.*

**Key words and phrases:** *information and communication, distance learning technologies, education and training, teacher, visual aids, interactive methods, innovative technologies, interactive multimedia technologies, the concept of "subject-subject".*

**XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu uzluksiz ta'lim tizimida va butun hayot davomida har bir shaxsning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya va masofaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirdi.**

**Hozirgi kunda an'anaviy ta'lim shakllari bilan birgalikda masofaviy ta'lim texnologiyalari jadallik bilan keng joriy etilmoqda. Bu hozirgi yoshlarning, ya'ni yangi avlodning ko'pchiligi shaxsiy kompyuterdan erkin foydalana olishi va hozirgi kunda har bir ta'lim muassasasi, har bir shaxs internet tarmog'i va undagi ma'lumotlardan mohirlik bilan foydalanishiga bog'liq.**

*O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, hayotning barcha sohalarida tub islohotlar olib borildi. Islohotlar respublikaning rivojlanish va taraqqiyot yo'li deya e'tirof etilgan demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etish uchun xizmat qiladi. Demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etish vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlod zimmasiga yuklatilar ekan, o'z o'rnida ularning ta'lim-tarbiyasini maqsadli amalga oshirishga bevosita jamiyat, oila va ta'lim tizimi birdek ma'sul. Shuningdek, ta'lim-tarbiya bilan bog'liq kasb egalari pedagoglar, ularning kasbiy salohiyati, malaka va mahorat darajalari, ma'naviy qiyofasi masalalari ham davlat siyosatining ustuvor masalalaridan biridir.*

O'zbekiston Respublikasining Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish dasturida onalik va bolalikni muhofaza qilish ishlariga ustuvor yo'nalish berilgan. Mamalakatimizda har tomonlama kamolga etgan avlodni tarbiyalash va voyaga etkazish ishlariga yuksak darajada e'tibor berilmoqda, chunki yurtimizning kelajagi hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy dunyosining shakllanish sifatiga bevosita bog'liqdir.

Hozirgi davrda har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etilib, amalda qo'llash tadbiq etiladi. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat.

**Ma'lumki, «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'limning uzluksizligi, uning mutlaqo yangi mazmuni, nufuzini oshirishga, jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rniga yuksak baho berilgan. Zamonaviy ta'lim markazida shaxs turadi, unga ta'sir etuvchi, zaruriy fazilatlarni shakllantiruvchi bo'lib, o'qituvchi timsoli mujassamlashgan. Barkamol, mustaqil fikrlovchi shaxs esa ijtimoiy hayotimizni farovon qiluvchi, rivojlanishini shakllantiruvchi qudratli kuch sifatida namoyon bo'ladi.**

*Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod taraqqiyotini belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. O'qituvchi – pedagogik va psixologik jihatdan o'z ixtisosligi yo'nalishlari bo'yicha o'quv muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs*

*sanaladi va u o‘qitish shakllarida foydalanilgan o‘qitish qonuniyatlari, printsiplarini ijodiy qo‘llashda, ilmiy bilishga doir g‘oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tadbiq etishdek muhim vazifani bajaradi.*

**Ta’limning ko‘rgazmali vositalaridan foydalanib og‘zaki mashq bajarish dars samaradorligini oshirishdagi talabaning bilim va qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. Og‘zaki mashqlarni bajarishda keng darajada va qisqa vaqt ichida talabalarning faol ishtirok etishiga erishish kerak. Bu albatta o‘rinli o‘tkazilsa o‘quv jarayonini faollashtiribgina qolmay o‘quvchilarda ongli va mustahkam bilim, malaka va ko‘nikmalarini hosil qilish manbai bo‘ladi.**

**Mustaqillik yillarida zamonaviy talablar asosida ta’lim sifatini oshirish maqsadida ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o‘quv dasturlari, o‘quv-metodik adabiyotlarni xalqaro talablar asosida yangilash, o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish kabi ishlarga alohida e’tibor qaratildi. Ta’lim sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida axborot-kommunikatsiya va masofaviy o‘qitish texnologiyalarini hamda o‘qitishning interfaol metodlarini qo‘llashga sharoitlar yaratildi.**

Interfaollik asosida darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham talaba chetda qolmaydi, ya’ni ular ko‘rgan, bilgan, o‘ylagan fikrlarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Talabalar hamkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish, o‘zlashtirishda o‘zlarining shaxsiy hissasini qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘zaro bilimlar, g‘oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo‘ladi. Bunday holatlar o‘zaro samimiylikni ta’minlaydi, yangi bilimlar olish, o‘zlashtirishga havas ortadi, shu jarayonda bir-birlarini qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro do‘stona munosabatlar vujudga keladi. Buning tarbiyaviy ahamiyati katta.

Demak, har bir fanni o‘zlashtirishda interfaol darslarni tashkil qilish o‘quv jarayonida yakka tartibda va juft bo‘lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyixalar, rolli o‘yinlar, axborot manbalari bilan ishlash, ijodiy ishlashdan foydalanish mumkin.

Ta’lim oluvchilarni fanlarni o‘zlashtirishga qiziqtirishda dars jarayonlarida interfaol ta’lim metodlarini tadbiq etish asosida ta’lim samaradorligini oshirish va ta’limni individuallashtirish, shaxsga yo‘naltirish, ta’limda texnologik yondashuvni shakllantirish, hamda faol usullarni ta’lim jarayonlarida qo‘llash orqali talabalarni mustaqil ravishda darsni o‘zlashtirish, tahlil qilish, ijodiy mulohaza yuritishga, shaxsiy xulosalar chiqarish, erkin fikr yuritishga, o‘zlarida va oila a’zolarida tibbiy va ekologik madaniyatni shakllantirishga, shaxsiy va umumiy gigiena qoidalariga amal qilishga o‘rgatishdan iborat.

Fanlarni o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiya usullarini qo‘llash, o‘quv jarayonlariga interfaol multimedia texnologiyalarini va kompyuter texnologiyalarini qo‘llanilishi ta’lim tizimini shakllantirish, bilim sifatini yaxshilash imkoniyatini beradi.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek “Bugun o‘tgan davr mobaynida amalga oshirgan ishlarimizni xolisona baholar ekanmiz, ta’lim- tarbiya sohasida hali qiladigan ko‘pgina vazifalarimiz borligini, o‘z echimini kutayotgan dolzarb muammolarni hal qilish, eng muhimi, bu borada boshlagan islohotlarni mantiqiy yakuniga etkazish, ularning yarim yo‘lda qolib ketishiga, o‘zibilarmonchilikka yo‘l qo‘ymaslik zarurligini hammamiz yaxshi tushunamiz. Avvalambor, barcha ta’lim muassasalarini davr talablariga mos holda rivojlantirish, zamonaviy

jihoz va uskunalar, o‘quv laboratoriyalari va ustaxonalar bilan ta’minlashni davom ettirish, yangi ta’lim standartlari, dastur va qo‘llanmalarni joriy etish masalasini eng muhim vazifamiz sifatida ko‘rishimiz darkor”.

Davlatimiz rahbarining 2019 yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarininng uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishga, oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilarining kasb darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, ularni zamonaviy talablarga muvofiq muntazam qayta tayyorlashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yuksaltirishni ko‘zda tutgani bilan nihoyatda ahamiyatlidir. Farmonda oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishning muhim yo‘nalishlari belgilab berildi. Jumladan, yuqori samarali zamonaviy ta’lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg‘or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda, oliy o‘quv yurtlarining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv rejalari, dastur hamda uslublarini tubdan yangilashga oid chora-tadbirlar o‘z ifodasini topdi. Bu, o‘z navbatida, oliy o‘quv yurtlarida talabalarga saboq berayotgan professor-o‘qituvchilarning zamon bilan hamnafas bo‘lishlariga, o‘quv jarayoniga fanlar bo‘yicha innovatsiyalar, shuningdek, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishga zarur shart-sharoit yaratadi, shu bilan birga, kasb mahorati, pedagogik va ilmiy faoliyatini muttassil rivojlantirib borishini talab etadi. Negaki, bugun voyaga etayotgan navqiron avlodni intellektual salohiyatli, zukko qilib tarbiyalash, ularga puxta bilim berish mutaxassislarning yuksak bilim darajasiga bevosita bog‘liqdir. Farmonda qayta tayyorlashning tegishli yo‘nalishlari bo‘yicha doimiy faoliyat ko‘rsatadigan oliy o‘quv yurtlarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish kurslarini tashkil etish, ushbu kurslarda mashg‘ulotlarni sifat jihatidan yuqori tashkiliy va professional darajada o‘tkazish uchun zarur o‘quv-uslubiy hamda moddiy- texnik bazani shakllantirish lozimligi qayd etildi. Bu sa’y-harakatlar, albatta, bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida yuksak malakali va etuk mutaxassislarni etishtirib berish, oliy ta’lim tizimini tom ma’noda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi muhim omilga aylantirish, qolaversa, kadrlar tayyorlash tizimining sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. SHu o‘rinda barcha sohalarga axborot- kommunikatsiya texnologiyalari jadal kirib borayotganini qayd etish joiz. Mazkur hujjatda ham oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilarining global internet tarmog‘i, multimedia tizimlari va masofadan o‘qitish usullaridan foydalangan holda, zamonaviy innovatsion pedagogika, axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini egallashi va ularni o‘quv jarayoniga faol tatbiq etishi zarurligi ko‘zda tutilgan.

Bugungi kunda talaba shaxsini barcha imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun albatta ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan xarakterda bo‘lishi talab etiladi. Buning uchun ta’limni tashkil etish jarayonida talabaning qobiliyatlari, extiyojlari va o‘ziga xos jihatlarini hisobga olish lozim. Ana shu elementlar hisobga olingan taqdirda o‘z-o‘zidan tabaqalashtirilgan, rivojlantiruvchi, o‘qishga bo‘lgan motivlarni kuchaytiruvchi “sub’ekt-sub’ekt” konsepsiyasiga asoslangan ta’lim tizimi kelib chiqadi.

Hozirgi davrda talabalar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan ilmiy axborot oqimi to‘xtovsiz o‘sib bormokda. Shu munosabat bilan o‘quv jarayonini tashkil qilishni takomillashtirishning shunday yo‘llarini izlab topish talab qilinadiki, bunda talaba o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini

maksimal darajada rivojlantirishga intilsin hamda bilimlarini mustahkam egallash uchun bor kuchlarini ishga solsin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 1997 y., 29 avgust №463-1.

2. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». Toshkent, 1997 y., 29 avgust №463-1.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 y. dagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.

4. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Melikuzieva Zulhumor Sherqozi qizi, Abdullaeva Umidahon Uktamjon qizi //INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES, THEIR NATURE, TYPES AND THEORETICAL FUNDAMENTALS// Texas Journal of Multidisciplinary Studies. Vol. 9. 06-2022. 123-126 page.

5. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Oripova Nodirahon Qodirjon qizi, Nazirova Arofatxon Maxmudjon qizi //Basics of a healthy lifestyle in the educational process// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 89-94 page.

6. Eleonora Topvoldievna Mirzajonova, Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva // Modern Special Preschool Education: Problems and Solutions// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 100-106 page.

7. Roziqova Gulbahor Zaylobiddinovna, Nazirova Arofatxon Maxmudjon qizi // CREATING AN INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN THE EDUCATIONAL PROCESS// IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 5 IYUN / 2022 YIL / 19 – SON. 284-288 стр.

8. Abdullaeva Umidahon Oktamjon qizi, Melikuzieva Zulhumor Sherqo'zi qizi, Nazirova Arofatxon Maxmudjon qizi // THE VALUE OF USE OF INNOVATIVE IDEAS FOR INTENSIFICATION OF MENTAL ACTIVITY OF STUDENTS// American scentifik journal. Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Date of Publication: 06-06-2022 Volume 9. 80-83 page

9. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, A.Ruzimatova //CREDIT-MODULE SYSTEM OF EDUCATION// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 20.08.2022 yil. 10-SON. 83-87 бетлар

10. Parpieva O.R, Hojikarimova G.T, Nazirova A.M //FORMATION OF STUDENT PEDAGOGICAL SKILLS BASED ON THE REQUIREMENTS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT// Международном научно-практическом журнале "Экономика и социум". Вып №6(85) 2021. 157-161стр.